



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel.: (71) 210-11-04, info@mc.uz, minstroy2@exat.uz, www.mc.uz

2024 yil. "2" may

01/6-06/4470-son

O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish
Akademiyasiga

Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasi
Korrupsiyaga qarshi kurashish
Agentligiga

(Kapital qurilish sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan Yo'l xaritaning 10 bandi ijrosi yuzasidan)

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 1-martdagi 13-sonli bayonnomasi ijro uchun yuborilgan.

Kapital qurilish sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan Yo'l xaritaning 10 bandiga muvofiq "Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, hududiy va tizim tashkilotlariga ishga yangi qabul qilingan xodimlarni kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarida majburiy o'qitish" topshiriq belgilangan.

Shu munosabat bilan, mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlik va uning tarkibidagi tashkilotlarga ishga yangi qabul qilingan xodimlarni "halollik vaktsinasi" tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha maxsus o'quv kurslarida 12 soatlik masofaviy o'qitilishida amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Vazir o'rinbosari



D.Adilov